

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATSION TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH

Baxriddinova Laylo Xusniddin qizi,

Xalqaro Nordic universiteti Pedagogika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya fani bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsion, ya'ni butunlashgan tadqiqot metodlaridan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash va kuzatuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishda integratsiyalashgan tadqiqot metodlarining mohiyati ochib beriladi hamda ularning afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur metodlarning amaliy namunalari keltirilib, kuzatuvlar va izlanishlar natijalari asosida olingan xulosalar taqdim etiladi. Tavsiya sifatida tarbiya fanini o'qitishda faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydigan amaliy-tadqiqot yondashuvlaridan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa o'quvchilarda ilmiy va axloqiy sifatlarning uyg'un ravishda takomillashuviga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: integratsion, tadqiqot metodlari, kompetensiya, Dizayn fikrlash Metodi, Keys stady.

Аннотация. В статье раскрывается значение использования интеграционных, то есть комплексных исследовательских методов в развитии компетенций учащихся начальных классов по предмету «Воспитание». Рассматриваются сущность интегрированных исследовательских методов, их преимущества в повышении активности учащихся, формировании самостоятельного мышления и наблюдательности. Приведены практические примеры применения данных методов, а также выводы, основанные на наблюдениях и результатах исследований. В качестве рекомендации подчеркивается необходимость не ограничиваться лишь теоретическими знаниями, а применять исследовательско-практические подходы, которые подготавливают учащихся к реальным жизненным ситуациям. Это способствует гармоничному развитию научных и нравственных качеств учащихся.

Ключевые слова: интеграция, исследовательские методы, компетенция, метод дизайн-мышления, кейс-стади.

Annotation. The article highlights the importance of using integrative, or holistic, research methods in developing primary school students' competencies in the subject of "Upbringing" (Character Education). The essence and advantages of integrated research methods are explained, particularly their role in increasing student engagement, fostering independent thinking, and enhancing observational skills. Practical examples of these methods are presented, along with conclusions based on observations and research outcomes. As a recommendation, the article emphasizes the need to go beyond theoretical instruction and employ research-based practical approaches that prepare students for real-life situations. This contributes to the harmonious development of students' scientific and moral qualities.

Keywords: integration, research methods, competence, design thinking method, case study.

Kirish. Ushbu maqolaga kirish qismini mashhur olim, astronom va yozuvchi Carl Saganning quyidagi so'zlari bilan boshlamoqchiman: **"Every kid starts out as a natural-born scientist, and then we beat it out of them. A few trickle through the system with their wonder and enthusiasm for science intact"**. Olim bu so'zlari bilan "Har bir bola tug'ilganda tabiiy tadqiqotchi bo'lib dunyoga keladi, lekin biz bu hissini asta-sekin yo'qotib qo'yishga majbur qilamiz. Faqatgina oz sonli bolalar tizimdan hayrat va ilmga bo'lgan ishtiyoqini saqlab qolgan holda chiqishadi." Demoqchi. Aytmoqchimanki, biz faqatgina tizimga kerak bo'lgan yodlashni va aytib berishni biladigan bolalarni emas balki

o'ylashni va qo'llashni biladigan bolalarni tarbiyalash masalasiga diqqatimizni qaratishimiz lozim. Shundagina, olim aytib o'tgan" oz sonli" bolalar soni ko'payib boradi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda an'anaviy usullardan tashqari integratsiya va amaliy tadqiqot yondashuvlaridan foydalanish zarurati kuchayib bormoqda. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonida ularni muloqotga, kuzatishga, mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiruvchi integratsion metodlar samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonidagi asosiy muammolardan biri — o'quvchilarda tarbiya faniga oid amaliy kompetensiyalarning yetarlicha shakllanmasligi, darslikdagi nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'rsatmalarning tizimlashmaganligi. Bu esa nazariy bilimlarning kundalik hayotga tatbiq etilmasligiga, bolalarning real holatlar yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalarini ifodalay olmasligiga, chevasida yuzaga kelgan muammolar yuzasida o'z dunyo qarshiga ega bo'lmasligi, keyinchalik jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligiga olib keladi. Mazkur muammolarni bolalarga boshlang'ich sinfligidanoq integratsion tadqiqot metodlarini tatbiq etish orqali samarali hal etilishimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — tarbiya fanini o'qitishda integratsion tadqiqot metodlarining samaradorligini aniqlash, o'quvchilarning kompetensiyalariga ta'sirini o'rganish va albatta ushbu izlanishni amaliyotga joriy etishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik adabiyotlarda "integratsiya" tushunchasi fanlar aro bog'liqlik asosida ta'lim mazmunini yaxlit holda tashkil etish jarayoni sifatida talqin etiladi (Yo'ldoshev, 2019)

Olimning ushbu fikrlariga t'oliq qo'shilgan holda ushbu "integratsiya" tushunchasini tadqiqot metodlari doirasida ham qo'llash va bu bilan boshlang'ich sinf tarbiya darslarida oquvchilarning o'rganish vositalarini yanada samarador qilish, metodlar yaxlitligini taminlashdir.

Aralash metodli tadqiqot (mixed-method research) muayyan muammo bo'yicha bilimlarni olish maqsadida turli tadqiqot strategiyalariga mansub bir nechta metodlardan (masalan, ma'lumotlarni tahlil qilish va dala tadqiqotlari) foydalanish orqali chuqurroq va mukammalroq tushunishga erishishni ko'zlaydiⁱ Ushbu ingliz tadqiqotchilarining fikriga ko'ra shuni aytishim mumkinki, muammolar bir, shunchaki unga yechimlarni turli hil yo'llar orqali topishimiz mumkin.

Deweyning qarashlariga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida tajriba va amaliy faoliyatga asoslangan integratsion yondashuv shaxs tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda "tarbiya" fanini boshqa fanlar bilan integratsiyasiga yetarlicha yoritilgan ammo fanni o'rganishda asosiy omil bo'lib xizmat qiluvchi metodlar integratsiyasini yetarlicha empiric tadqiq etilmagan

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz amaliy yo'nalishda bo'lib, aralash metodga asoslangan. Tadqiqot Qashqadaryo viloyatining 29-sonli umum ta'lim maktabining 3a-3b-sinflari orasida olib borildi. Tadqiqotda jami 60 nafar o'quvchi ishtirok

etdi. Ularga aynan “Tarbiya” fani qo‘yilgan kunda bir xil mavzular yuzasidan ushbu tadqiqot qo‘llandi. 3A-sinfga an`anaviy dars jarayoni, doimiy qo‘llanuvchi metodlar orqali o‘tildi. 3B-sinfga esa integratsion tadqiqot metodlari orqali dars jarayoni atshkil qilindi. Bu ikki sinfni maqolaning keying qismlarida belgilash uchun

3A-Ananaviy sinf

3B-Intellectual sinf qilib belgilab olamiz.

Tadqiqot jarayonida ikki sinf doirasida ikki xil metodlar orqali dars o‘tilganligi sabab ushbu sinflar qo‘llanilgan metodlarni alohida sanab o‘tamiz.

An`anaviy sinfimizga- ”Kim bo‘lsam ekan” mavzusi yuzasida, suhbat Metodi qo‘llandi

Intellectual sinfimizga- “Kim bo‘lsam ekan” mavzusi yuzasidan Pedagogik kuzatuv + suhbat, so‘rovnoma+taqqoslash metodlari qo‘llandi.\

Ushbu tajriba-sinov ishimiz uch bosqichda amalga oshirdik:

Aniqlovchi bosqich — o‘quvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va qiziqish darajalari o‘rganildi;

Shakllantiruvchi bosqich — mavzuga oid darslar va faoliyatlar orqali o‘quvchilarda kasbga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirildi;

Nazorat bosqichi — olib borilgan ishlarning samaradorligi tahlil qilinib, natijalar baholandi.

Har ikkala sinfda ham darslarning borish jarayoni, qo‘llanilgan metodlar va olingan natijalar jadval asosida tizimli ravishda ko‘rsatib o‘tildi. Bu esa tajriba-sinov ishlarining aniqligi va xolisligini ta‘minlashga xizmat qildi.

| Bosqich | Sinf | Mavzu | Metodlar | Maqsad | Kutilgan natija |
|--------------------------|------|--------------|---------------------------------------|--|---|
| Aniqlovchi | 3A | bo‘lsam ekan | Suhbat | O‘quvchilarning kasb haqidagi dastlabki tushunchalarini aniqlash | O‘quvchilarning qiziqishlari va fikrlari aniqlanadi |
| Aniqlovchi | 3B | | Pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma | O‘quvchilarning kasb tanlashga bo‘lgan munosabatini chuqur o‘rganish | Boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalar tahlil qilinadi |
| Shakllantiruvchi bosqich | 3A | | Suhbat, savol-javob | Kasblar haqidagi bilimlarni kengaytirish | O‘quvchilarda kasblarga qiziqish shakllanadi |
| Shakllantiruvchi bosqich | 3B | | Suhbat, so‘rovnoma, taqqoslash | Ongli kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish | Mustaqil fikrlash va tahlil qilish rivojlanadi |
| Nazorat bosqichi | 3A | | Suhbat | Olingan bilimlarni baholash | O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi |

| | | | | | |
|------------------|----|--|------------------------|----------------------------------|--|
| Nazorat bosqichi | 3B | | So'rovnoma, taqqoslash | Tajriba samaradorligini aniqlash | Intellectual sinf natijalari an'anaviy sinf bilan solishtiriladi |
|------------------|----|--|------------------------|----------------------------------|--|

An'anaviy sinf natijalari:

O'quvchilarning kasbga qiziqishi o'rtacha darajada, asosan suhbat orqali aniqlangan.

Mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanmagan, faollik pastroq darajada kuzatilgan.

Kasb tanlashda hissiy va tasodifiy yondashuv ustun bo'lgan, ongli tanlov ko'nikmasi yetarli shakllanmagan.

Intellectual sinf natijalari:


Pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma va taqqoslash metodlari orqali o'quvchilarning faolligi va kasblarga qiziqishi sezilarli darajada oshgan

Mustaqil fikrlash
Tahlil qilish
Ongli kasb tanlash kompetensiyalari yuqori darajada shakllangan.

Natijalar aniqligi ta'minlangan

O'quvchilar o'z qiziqish va imkoniyatlarini taqqoslay bilish, qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirgan

Olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi va diagrammalar orqali taqqoslandi.



Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intellektual sinf pedagogik metodlarni keng qo'llash orqali o'quvchilarning kasbga yo'naltirilganlik darajasini sezilarli darajada oshirdi. An'anaviy sinfda esa suhbat asosidagi yondashuv yetarli darajada samarali bo'lishiga qaramay, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ongli tanlov ko'nikmalari cheklangan. Shu bilan birga, metodlarni birlashtirib qo'llash — masalan, kuzatuv + so'rovnoma + taqqoslash — o'quvchilarning kompetensiyalarini keng qamrovda shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Taqdim etilgan tadqiqotni olib borgan shaxs sifatida shuni aytishimiz kerakki, Boshlang'ich sinfligidanoq o'quvchiga mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ushbu integratsion tadqiqot metodlari orqali sezilarli darajada o'z samaradorligini ko'rsatadi. Aynan "Tarbiya" fani doirasida ushbu integratsiyani qo'llashimiz esa bolalarning real holatlarni kuzatish jarayonida o'ziga yaxshi axloqiy tarbiyaviy xulosa chiqarishiga, vaziyatlarni to'g'ri baholay olishga, xalq tili bilan aytganda "birov tomdan tashlasa uning orqasidan tashlayvermaslikka", jamiyatda bo'layotgan holatlar yuzasidan tanqidiy qiyosiy fikrlar yurita olishiga va o'z shaxsini rivojlantirishda mustaqil qarorlar qabul qilishiga katta turtki va negiz bo'ladi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Qodirov B.R. Ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika. – Toshkent: Fan, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari
4. Yoshlarni kasbga yo'naltirish va ta'lim sifatini oshirishga doir hujjatlar.
5. Ismailova Z.K. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2021
6. Davlat ta'lim standartlari (DTS).
7. Xodjayev B.X. Pedagogik tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.